

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT INSTITUTI

“San’atshunoslik” kafedrası

Mavzu: Bugungi kun o'zbek san'atida zamon qahramoni

“San’atshunoslik jurnalistikasi” bo’limi 3-bosqich talabasi
Matyoqubov Azizning

Kurs ishi

Kurs rahbari:

San’atshunoslik fanlari doktori, professor M.A.Hamidova

Toshkent - 2013

Zamon qahramoni

Ma'naviyat olamida ezgulik nihollarini bunyod etib, ularni ibrat buloqlari birla kamolga yetkazuvchi, turli xil illat ajriqlarini go'zal fazilat kaftlari ila yulgani holda, ular o'rniga sabr-u qanoat urug'larini qadab, jamiyat dardiga shifo bo'larlik malhamlar tayyorlovchi bag'ri keng insonlar chinakam qahramondirlar. Zero dushmanga qarshi janglarda jon fido qilib, afsonaviy ajdar kuchlarini mahv etishdan ko'ra, qalb lashkarlarini tarbiyot saltanatiga boshlab, u yerda imon qo'rg'onlarini barpo etmoqlik anchayin mushkuldir. Bu yanglig' mas'uliyatli vazifani ado etganlar esa har bir davrda zamon qahramonlari bo'lib qolgusiki, bundayin insonlarning bevosita hayot maydonidagi turli jabhalarda namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Shu bois ham bugungi kun o'zbek san'atida, xususan, teatr va kino olamida ana shu singari obrazlar yaratish va tomoshabin e'tiboriga namuna bo'larlik zamona qahramonlarini havola etish masalasi ilgari surilmoqdaki, Olimjon Xoldorning "Tushunish" hikoyasi asosida suratga olingan "G'urur" filmi misolida bu talablarga javob bera oladigan qahramon qiyofasini ko'rish mumkin. Rejissor Abdumalik Shermatov mazkur film ustunlarini or-nomus va g'urur javohirini saqlagan insonning kun kelib baxt vodiysidagi adolat koshonasiga uchrashi muqarrarlighi g'oyasi birla tiklar ekan, bu jarayonlar ifodasini Shuhratjon Rahmatov qismati orqali namoyon etadi. Ota-ona halokatidan so'ng tibbiyot oliy o'quv yurtini a'lo baholarga tamomlab, aspiranturada ilmiy ish yoqlashga kirishgan, unga mas'ul etib tayinlangan professorning nohaq tazyiqlariga uchrasa-da vijdon amriga qarshi bormay, o'z qishlog'iga qaytib, davosiz hastalik choralarini topgani holda ko'plab insonlar dardiga darmon bo'la olgan bu yigit timsolida, zamon qahramoniga mos jihatlarini kuzatish mumkinki, buning ilk daliliy kurtaklari, muqaddima sifatida bayon etilgan quyidagi jumlarlar orqali ravshanlashadi: "Men sizlarga hozir so'zlab beradigan hikoyam oddiy bir o'zbek yigiti, ilmga intilib, odamlar dardiga davo izlagan o'g'lon haqida." Qahramon qiyofasiga berilgan ilk chizg'ilar uning sahar chog'i nonushtaga kelib o'tirishi bilan davom etib, asta-sekinlik bilan boshqa jihatlarini-da namoyon qilib boradi. Bunda avvalo uning kelishgan, barvasta qaddi-qomati-yu dumaloq yuzli, qosh ko'zlari chiroyli, sochlari bir tekista o'ng tomonga

taralgan tashqi qiyofasi gavdalanadi. Bu ham bevosita qahramon ichki olamining sirtqi ifodasi bo'lsa ajabmas. Zero uning dasturxon boshida "O'qish tufayli ko'p vaqtim shaharda o'tyapti. Qishloqni sog'indim" deya entikishi-yu "Atay ota-ona diydorini ko'rish uchun o'qishdan ruxsat so'radim" yanglig' so'zlari shuni tasdig'lab, uning o'qimishliligi-yu mehribonchiligidan darak beradi. Shu zaylda Shuhratjon Rahmatov sajiyasidagi ba'zi bir bo'yoqlarning namoyon bo'lishi, ota-onasi to'g'risida mahalladosh Rahim akaning yetkazgan noxush avtohalokat xabari ila yanada yorqinlashib boradi. Bunda uning vazminlik-la g'am-qayg'u tig'alrini ko'ngil bo'stoniga qaratganligi, qismat zarbasiga chap berib, hayotning sertashvish to'lqinlari aro olg'a intilganligi ahamiyatlidir. Bu unsurlar qahramon tomonidan yillar davomida tiklangan iroda qasrining mustahkam poydevori bo'lsa ehtimol. Ayni paytda maraka yig'inlaridan so'ng mahalla kishilari bilan bo'lib o'tgan suhbat jarayoni esa Shuhratjon qiyofasidagi ayrim yashirin belgilarni oshkora qilibgina qolmay, uning keyingi umr yo'lidagi muhim odimlarini tashlashiga turtki bo'ladi. Xususan uning yig'ilganlar maslahatiga javoban "Avvalo mana shunday og'ir kunlarda yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat berganliklaring uchun sizlarga katta rahmat. Endi buyog'iga ukamni, singlimni o'ylamasam, ro'zg'or tashvishlarini zimmamga olmasam bo'lmaydi. Shuning uchun biron bir ishga kirishim kerak " deya kamtarona so'zlashi uning muomala gulshanidan maftunkor gul-lolalar terib, qalb chamaniga qadaganligidan va yaqinlar tashvishida mas'uliyat kamarlarini burchlik vazifasiga mahkamroq qadaganligidan darak bergusidir. Kattalar ko'rsatmasiga binoan tibbiyot oliy o'quv yurtining 6-bosqichidan ketish qaroridan qaytib, maqsad mash'ali-la ilm sari intilishi esa mulohazakor zehn sohibi ekanligini ko'rsatadi. Yig'inlar tamoman tugab, Shuhratjonning singlisi va ukasi Alisher bilan kekgusi ishlar to'g'risida fikr yurgizib "Ozgina qiyinchilikka chidasam, keyin yana hammamiz birga bo'lamiz" tarzida bildirgan fikri-yu ular uchun dalda bo'lib turgan ammasiga "Yaxshiyam siz bor ekansiz ammajon. Ko'nglimni ancha hotirjam qildingiz. Rahmat sizga" deya minnatdorchilik bildirishi ayni damda uning qat'iylik fazilatlari birla yaqinlariga nisbatan iltifotliligidan nishonadir. Bu kabi xususiyatlar uning oliygohdagi tahsili birla yanada kengayib boradiki, buni o'quv so'ngida unga taklif qilingan imkoniyat orqali anglash mumkin: "Siz iste'dodli

talabalarimizdانسز. Agar boshqa niyatingiz bo'lmasa, sizni aspirantuarada olib qolsak degandik. To'g'ri, oilaviy sharoitingizni bilamiz. Lek qirqiga chidagan qirq biriga ham chidashi kerak. Uyog'iga biz ham qarab turmasmiz. Mana, muhtaram Usmoniy domlamiz sizga ilmiy rahbarlik qiladilar". Aspiranturani sirtidan o'qib, ishlashga qaror qilgan Shuhratjon endilikda butun kuch-g'ayratini nomzodlik ishlariga qaratar ekan, bunda unga kursdoshi Gulnozaga bo'lgan muhabbati madad bag'ishlaydi. Uning "Bu dunyoda sizga bo'lgan muhabbatimdan bo'lak suyanadigan hech narsam yo'q" deyishi-da shuni tasdiqlaydiki, bunda quyidagi telefon orqali bo'lib o'tgan diolog ham ahamiyatlidir:

Qiz – Assalomu aleykum!

Yigit – Vo Aleykum assalom. Yaxshimisiz? Oyingiz, dadangiz yaxshimilar?

Qiz – Ha, rahmat, yuribmiz. O'zingiz yaxshimisiz? Ilmiy ishingiz tugay deb qolgandir.

Yigit – Ha, mana hozir kam-ko'stini tuzatish arafasida shaharga kelgandim. Uyga qaytyapman. Yana ozgina sabr qilib tugatib olsam, keyin to'y boshlardik.

Qiz – Shunaqa deng. Sabr deysiz-u, ilmning yuki og'ir. Qiynalib qolmasangiz bo'ldi.

Yigit – Gulnoza, sizning daldangiz, har qanday qiyinchilikni yengishda menga madad bo'ladi. Siz bilan gaplashgandan keyin ruhim nihoyatda yengillashib, hayotga qiziqishim ortadi. Kayfiyatimni ko'tara oladigan yagona inson sizsiz.

Qiz – Rostdan-a? Chiroyli so'zlardan nariga o'tmas ekansizda.

Yigit – Ishoning, birga bo'lishimizga ozgina qoldi.

Qizga bo'lgan munosabati orqali Shuhratjonning samimiyligi-yu xushmuomalaligi aks etadi. Bu esa ayni damda bugungi kun yoshlariga o'ziga xos ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi. Shu lavhada rejissor tomonidan qo'llangan kichik bir ko'rinish misolida ham Shuhratjonning ilmga, xususan, kitobga bo'lgan qiziqishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Kitob javoni yonginasida bo'lib o'tgan suhbat

onlari davomida u yerga tartib bilan ketma-ket joylashtirilgan yuzlab kitoblarshundan darak berib, qahramonning yana bir ijobiy hislatini oshkor qiladi. Keyingi jarayonlar esa Shuhratjon hayotida ahamiyatga molik voqealar bo'ronini boshlab kelib, uning murakkab vaziyatlarda ham vijdonan yo'l tuta olishi mumkinligini isbotlaydi. Ilmiy rahbari iltimosiga ko'ra uning uyiga bozor-o'char qilib borgan Shuhratni iliq kutib olgan xonadon bekasining oqshom payti Usmoniy domla bilan qurgan suhbatida ana shundayin hodisotlar uchquni bo'lishi bilan birga, qahramon qiyofasidagi boshqa jihatlarni-da namoyon etadi:

Ayol – Shogirdingiz juda istarali, og'ir, vazmin, mulohazali yigitga o'xshaydi, dadasi.

Usmoniy domla – Ha, juda qiyinchilik bilan o'zi oyoqqa turyapti.

Ayol – Tunov kuniyam bozorni juda rejalab, ko'ngildagiday qilibdida. Shunaqa kuyoving bo'lsa qizingdan ham ko'ngling to'q bo'lardi-da.

Baayni shu niyatlar shamoli professor ko'ngliga ham o'tib, otalik orzu-havaslar ummonini to'lqinlantirib yuboradi va shu ondan boshlab Usmoniy domla uning ro'yobi sari intila boshlaydi. Buning aksi Shuhratjon uylariga uchinchi bor tashrif buyurgandagina jilovlanib, andisha sarhadlarini bosib o'tadi. Professorning: “Men qarib qoldim. Ishimni, bor bisotimni senga topshiraman. Xohlasang uy joyni ham senga hatlab, ikki qo'llab topshiraman” tarzida bildirgan taklifi qizining baxti uchun va'da qilingan inoyat bo'lishi bilan birga, kelajak muvaffaqiyatini taminlovchi zo'r imkoniyat garovi hamdirki, Shuhratjonning bunga nisbatan “Ustoz men sizlarni to'g'ri tushundim. Ochig'ini aytsam, juda yaxshi qizingiz bor (ikkinchi bor uylariga kelganida suhbatlashgan edi). Tarbiyali, aqlli, kamtarin. Qolaversa, sizlardek bag'ri keng insonlardan juda ko'p yaxshiliklar ko'rdim. Lekin taklifingizni qabul qilolmayman. Ko'ngilga buyruq berib bo'lmas ekan. Unashtirilganman” deya tavoze-la qaytargan javobi, uning chin ma'noda go'zal fazilatlarga boy, mol-u davlat havasidan vafo durini afzal ko'rib, sevgi yo'lida sadoqat qalqonlarini baland tutgan mard yigit ekanligidan nishonadir. Ehtimol uning zamon qahramoni sifatida talqin etilishiga sabab bo'lguvchi omillar ham shundadir. Bu ayniqsa Shuhratjonning

quyidagi ichki monologi misolida yaqqol namoyon bo'ladi: "Dunyoni ishlarini qarang-a. Odam bolasi bunchalar buqalamun bo'lmasa. Imonimni sotib, ilm egallaydigan bo'lsam, bunday amalning menga keragi yo'q. Umuman keragi yo'q". Yo domlasi taklif qilgan shartga ko'nib, shaxsiy manfaat yo'lidan borish, yo undan vos kechish evaziga baridan ayrilish tanlovi turgan shunday vaziyatda Shuhratjonning o'z g'ururiga qarshi bormay haq yo'lni tanlashi, uning asl insoniy qiyofasini belgilaydi. Shunday qilib nomzodlik himoyasiga ikki hafta qolganda "birovning soyasida qo'g'irchoq bo'lib yurishdan ko'ra toza vijdonini va yigitlik orini afzal bilgan Shuhratjon" ustozining "Ishing bitdida, eshaging loydan o'tdida, chuchvarani xom sanabsan. Toki men tirik ekanman, himoyang hech qachon bo'lmaydi. Bor yo'qol" tarzidagi muomalasidan so'ng qishlog'iga qaytib, o'z ishi bilan mashg'ul bo'ladi. Ayni shu joyda uning qanchalik yetuk mutaxassis bo'lib yetishganligi o'zining amaliy tasdig'ini topadi. Buni Usmoniy domlaning avtomobil radiosi orqali efirga uzatilgan eshittirishlardan biridagi "Men Parkentlik Shuhrat doktorga minnatdorchilik bildirmoqchi edim. U yaqinda qizimni davoladi. Qo'li yengil shifokor ekan" so'zlaridan anglash mumkin. Mazkur habarni eshitgan professor, keyinroq shogirdining o'z hamkasbiga qoldirib ketgan ilmiy ishi yagona qizi dardiga shifo topish maqsadida yozilganligini bilib "Men uning vafodorligi va fidoyiligidan mutlaqo behabar, shogirdimni uyimdan haydab soldim. Shuhratning ilmiy ishi asosida yo'lga qo'yilgan muolajalar huddi qizimdagi kabi hastalikka chalingan odamlarni davolab, oyoqqa turg'izayotganini tasodifan eshitib qolganimda, kimdir boshimga gurzi bilan tushirganday bo'ldi-yu ko'zlarim moshdek ochildi. Men bir vaqtlar uyimdan, nafaqat shogirdimni, balki o'g'limdek aziz bo'lib qolgan insonni haydagan ekanman" deya afsus chekishi, Shuhratjonning ustozga nisbatan hurmati-yu kasbiy jihatdan bilimdonligini tasdiqlaydi. Bu esa domlasining "Og'lim seni tushundim. Yigitning so'zi va g'ururi hamma narsadan ustun bo'ladi. Kelib himoyangni qilishing mumkin" deya xat yo'llab, ssenariy muallifi Sherzod Rasulov, Feruza Fayziyevalar bilan bir qatorda rejissor film orqali ko'zlagan g'oyaviy maqsadini namoyon etadi. Bosh qahramon sajiyasi (xarakteri) da aks etuvchi bundayin hislatlar chashmasi, bevosita yillar davomida to'plangan tajriba-yu ota-ona qalbiga singdirgan tarbiya uchqunlari natijasi bo'lsa ajabmaski,

qo'shnilarning "Ota-onang rahmatlik juda yaxshi insonlar edi. Otangni tumanda har bitta inson faqat yaxshi gap bilan eslaydi. Xudo rahmat qilgur qo'li ochiq, hech kimdan yordamini ayamaydigan ajoyib bir inson edi. Onang ham mehribon, muomalali, barchaga g'amxo'r yaxshi ayol edi" deya ularni xotirlashlari shundan dalolatdir. Zero Shuhratjonning oila koshonasida ibratga molik muhit birla voyaga yetganligi zamirida ham chuqur ma'no mujassamdirki, bu-da uning kamol topishida muhim ahamiyatga egadir. O'z vaqtida ukasi Alisherning "Aka, bu yil kollejning so'ngi bosqichidaman. Bu yog'iga o'qishdan keyin ishlashim ham mumkin. Siz o'qishingizni davom ettiravering" tarzida qo'llab quvvatlashi-yu singlisi Nozimaning "Aka, o'qishdan keyin men ham maktabda dars berishim mumkin. Rus tili, ingliz tilidan. O'shanda moddiy jihatdan qiynalib qolmasmiz" deya bildirgan mehribonchiligi esa shu tarbiya maktabining aksi sifatida ko'rinib, Shuhratjonga ma'naviy madad beradi. Shu boisdan har bir insonning Shuhratjon kabi o'z hayot yo'lini belgilashida oila birdamligi-yu mustahkamligi muhim o'rin egallaydiki, bu yilning ayni shu munosabat bilan nomlanishi zamirida ham inson kelajagi bilan bog'liq maqsad ko'zlangan bo'lsa ajabmas. Zamon qahramoni darajisida talqin etish mumkin bo'lgan mazkur obraz qiyofasining o'ziga xos belgilarda namoyon bo'lishi, ayni paytda shu rol ijrochisi hisoblanmish aktyor mahorati bilan ham bevosita bog'liqdir. Rixsivoy Aliyev gavdalantirgan Shuhratjon timsolida aqlli, xushmuomala, kamtarin, mehnatkash inson qiyofasi vazminlig-u tavozelik bilan ijro etilib, qahramon xarakterini ortiqcha bo'yoqlarsiz ko'rsatib bera olgan. Xususan, Rahim akaning avtohalokat to'g'risida yetkazgan noxush xabaridan so'ng Shuhratjonning yig'i-sig'i qilmay, ko'z qarashlarining o'zidanoq ichki kechinmalarini ifodalay olganligi, suygani-la uchrashuv chog'i qurgan suhbatlari davomida turli balandparvoz so'zlardan-u sun'iy hatti-harakatlardan holi ravishda, hurmat chegarasini bosib o'tmay, samimiy iltifot birla so'zlashlari, ustoz ta'nalariga ortiqcha e'tiroz bildirmagani holda sukut saqlab, o'zini tuta bilishi kabi lavhalarda shuni kuzatish mumkin. Garchi ushbu ellik daqiqalik filmda operatorlik ishi bilan bog'liq sayoz tasvirlar-u ba'zi aktyorlar ijrosida kuzatiladigan kamchiliklar bo'lsada, umumiy ma'no-mazmun jihatdan ko'plab insonlarga namuna bo'la olarlik ibratli filmdir. Va undagi bosh qahramon – Shuhratjon obrazi bugungi kun zamon

qahramoni sifatida talqin etilishi mumkin bo'lgan, go'zal fazilatlarga ega insondir . Zero tasavvurimizdagi zamon qahramoni, yoinki zamondosh obrazi deganda ma'naviy jihatdan barkamol, el-u yurt ravnaqiga kamarbasta, mushkul vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilib, kishilar og'irini yengil qila oladigan inson qiyofasi jonlanadiki, "G'urur" filmidagi Shuhratjon obrazi birla shu talablar so'roviga javob bera olarlik qahramon qiyofasini misol keltirish hamda shu bilan "zamon qahramoni" masalasiga bir qadar oydinlik kiritib o'tish mumkindir.